



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSIQIY TINGLASH VA RITMIK TUSHUNISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

**Muallif:** Gadoyeva Muborak Jumaqulovna <sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim" kafedrası o'qituvchisi <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14406632>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlari orqali tarbiyalanuvchilarni tinglay bilish, estetik zavqlana olish, badiiy idrok ko'nikmalarini hosil qilish va ritmik harakatlariga o'rgatish bilan birgalikda musiqani his qilishga doir metodik tavsiyalar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Musiqa, musiqiy ritmik harakatlar, raqs, ritmika, kuy, qo'shiq.

Zamonaviy pedagogikada gumanistik yondashuvga katta e'tibor qaratilayotgan bir sharoitda ta'lim oluvchilarning intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish o'laroq ularning ijtimoiy-hissiy imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqdi. Mazkur vazifani uzluksiz ta'lim tizimi xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, aynan maktabgacha yoshdagi bolalardan boshlab amalga oshirish maqsadga muvofiq. Zero, — "Maktabgacha bo'lgan yosh bola shaxsining jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan shakllanishining asosiy davridir". Maktabgacha yoshdagi bolalarda barcha faoliyatlar asosan o'yin orqali amalga oshirilishini nazarda tutganda, musiqa mashg'ulotlari bu yo'nalishda katta imkoniyatlarga ega ekanligini tasavvur etish qiyin emas.

Musiqa tinglash: Bolalarda kichik musiqiy asarni tinglash ko'nikmasini paydo qilish. Marsh, qo'shiq va raqs janrlari haqida ilk tasavvur paydo qilish va ularni farqlash. Musiqani mazmunan tushunishga o'rgatish: Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish: To'p bo'lib yengil yurish va yugurishdan sekin-asta har tarafga, to'g'riga, erkin-sochma, doira bo'ylab yengil yurish va yugurishga o'rgatish. Bolalarni 3-4 sodda va oddiy harakatlardan iborat raqslarni to'p bo'lib raqs tushishdan juftlikda, sochma tarzda, shundan so'ng doiradagi raqsar ijro etishga o'rgatish. Raqs harakatlaridan —Koptokni yuqoriga ot, —arqonni tort, —tokcha, —ko'zguga qara, —xo'rozcha, —maysani sila bilan tanishtirish va ularni musiqaga mos bajarish.

Musiqa mashg'ulotlarida musiqiy-ritmik harakatlari bajarish bolalarning axloqiy ma'naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqaga mos raqs, o'yin harakatlarini bajarish bolalarning diqqatini jamlash, xotirasini mustahkamlash va jismonan sog'lom o'sishlariga yordam beradi. Eng muhimi, raqs va ritmik harakatlar vositasida bolalarning musiqiy iqtidori, ritmik tuyg'usi shakllanadi, xotirasi charxlanadi. Musiqa, raqs, o'yinlar kichik yoshdagi bolalarga ayniqsa tez ta'sir etadi. Musiqiy-ritmik

harakatlar bolaning harakatchan, chaqqon bo'lishiga yordam beradi, qomatining to'g'ri o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Bolaga tetiklik va g'ayrat bag'ishlab, turli emotsional hislarini uyg'otadi. Raqs kuylari esa bolalarda ajoyib ichki his-tuyg'ular, kechinmalar hosil qilib, beixtiyor raqsga tushishga undaydi va ularni behad zavqlantiradi. Ko'rinib turibdiki, musiqa bilan harakat turlarini ijro etishda bolalarning bog'chada bajaradigan o'yin va harakatlari alohida ahamiyatga ega. Tarbiyalanuvchilarning bog'chalarda bajaradigan musiqiy-ritmik harakatlari quyidagilardan iborat:

- tartibli qadam tashlash, yurish, chopish, sakrash kabi harakatlar;
- sahnalashtirilgan syujetli o'yinlarda (mashinani boshqarish, quyoncha, ayiq polvon, tulki, samolyot, parvoz, paxta terish, gul terish kabi turli) harakatlarini bajarish;
- kichik hajmli o'zbek xalq kuylari, sodda bayondagi bolalar xalq qo'shiqlari, bolalar folklori namunalaridan zavqlanish, mazmunini anglash va oddiy harakatlar yordamida milliy raqs elementlarini bajarish;
- o'yinda obrazli harakatlarini ifodalash uchun musiqiy-ritmik harakatlarni mustaqil o'zlashtirish;
- raqs va laparlar. Musiqa ritmiga muvofiq harakatlarni almashtirib bajarish. Bu harakatlar bog'chada musiqa bilan bajariladigan barcha harakatlarni o'z ichiga oladi.

Musiqa tinglashda bolalarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni musiqa tinglashga o'rgatishda nazariy uslubiy vazifalar qo'yiladi, bular:

- Musiqa tinglash orqali bolalarda his-tuyg'ularini rivojlantirish.
- Boshlang'ich musiqa tinglash tushunchalarini rivojlantirish.
- Musiqa tinglash alohida metodlar orqali o'tkaziladi.

Bu vazifalarni bajarish orqali, dasturda ko'zda tutilgan va bolaning musiqa madaniyati rivojlanishida kelajakda asosiy rol o'ynaydigan uchta omil amalga oshadi, ya'ni, birinchidan musiqaga qiziqish musiqa asarlarini ishtiyoq bilan tinglash va ularni eslash, olingan taassurotlarni o'ylash ko'nikmalari, ikkinchidan musiqa tinglashga turg'un diqqat-etiborni va tinglash madaniyati boshlang'ich elementlarining shakllantiriladi, uchinchidan musiqiy didining shakllanishi, musiqa asarlariga badiiy baho bera olish imkoniyatlari kengayadi. Birgina musiqa tinglash orqali bolada uchta omil rivojlanar ekan, demak bolaga yoshlikdan berilgan musiqiy tarbiya uni har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishiga zamin yaratuvchi poydevor bo'ladi.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqa asarlari kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ashula aytish usuli, janrdagi musiqa asarlari, xususan, syujetli cholg'u pyesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqa mashg'ulotlari ko'pincha badiiy so'z bilan belgilanadi. Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotlari kichkintoylarda badiiy estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikri va nutqini o'stiradi. Bundan tashqari, musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Musiqa uquv qobiliyati asosan quyidagi

musiqa uquv turlaridan iborat bo'ladi: musiqaviy uquvi, musiqaviy tovushlarning baland-pastligini his etish qobiliyati, tembr uquvi (musiqa tovushlarining bir-biridan farq qiladigan, o'ziga xos jihatlarini ajrata bilish qobiliyati), ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish va uni sevrishga o'rgatish.
  2. Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg'ularini hosil etish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitib borish.
  3. Bolalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa bilan harakat qilish, raqsga tushish va bolalarning oddiy musiqa asboblarida kuy chalish ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatini o'stirib borish.
  4. Bolalar ovozini asrab tarbiyalash, ashula aytishning dastlabki ko'nikmalarini hosil etish, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish.
  5. Musiqa asarlaridan ta'sirlanish, shu asosda bolalarda musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish.
  6. Turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish musiqadagi badiiy obrazni o'yin va xor ovozlari vositasida ifoda etish, ma'lum musiqaviy mavzuga yangi o'yin o'ylab topish.
  7. Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini bog'cha hayoti bilan bog'lash, bog'chada o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, turli ertaliklar, konsertlar uyushtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish.
- Muxtasar aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tashkil etiladigan musiqa mashg'ulotlari jarayonida ular o'z hissiyotlarini, harakatlarini boshqarish, samarali muloqot o'rnatish, ritmik tushunish, tinglash va o'zlari, yaqinlari, do'stlari, oilasi va jamiyat a'zolari bilan munosabatga kirishish ko'nikma va malakalarini o'zlashtiradilar. Bu esa madaniy musiqiy va ijtimoiy-hissiy rivojlanishning muhim belgisidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

“Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining O'RQ-595-son Qonuni, Toshkent sh., 2019 yil 16 dekabr

H. Баҳриева (2020). Мактабгача ёшдаги болаларни ижтимоий-ҳиссий ривожлантиришда музика машғулотларининг ўрни. *Oriental Art and Culture*, (II), 162-167.

Gadoyeva, M. (2023). O'ZBEK MUSIQA MADANIYATIDA CHOLG'U ASBOBLARINING PAYDO BO'LISH TARIXI. *Interpretation and researches*, 1(22).

Shodieva Oygul “Bolalarga musiqaviy-ritmik harakatlarni o'rgatish va bolalarda musiqiy tarbiyaning rivojlanishida ritmik harakatlarning o'rni” SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 5-SON RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI 13.12.2022, 21-b

Gadoyeva, M. (2023). MAMLAKATIMIZ MUSIQA SAN'ATIDA CHOLG'U ANSAMBLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(37).